

Andijon davlat tibbiyot instituti, ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi



**Kafedra mudiri: v.v.b.
O`ROQOVA OYSULUV
JAMOLIDDINOVNA**

Tel: +998 93 255 22 99

e-manzil: oysuluv78@mail.ru

Qabul kunlari: Seshanba, soat 9:00 dan 11:00 gacha
Chorshanba, soat 12:00 dan 15:00 gacha
Juma, soat 12-00 dan 15-00 gacha

IJTIMOIIY – GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI TARIXI VA FAOLIYATI

Kafedra 1955-yili tashkil etilib, unga professor I.P.Po'latov rahbarlik qilgan. Kafedrada professor M.A.Mustafoev, dotsent T.A.Axmedov hamda R.Samar, S.X.Soatova, K.T.Temirova, Z.G.Xatipova singari o'qituvchilar mehnat qilganlar.

Keyinchalik kafedraga dotsent K.M.Narinskiy, dotsent H.Yu.Musaevlar rahbarlik qilgan. 1968- yilda kafedra ikkita mustaqil kafedra –tarix va falsafa kafedralariga bo'lingan.

Kafedraga prof. K.M.Narinskiy mudir etib tayinlandi. 1979- yildan kafedraga dotsent Ch.T.Temirov mudirlik qila boshladi. 1993- yilga kelib O'zbekiston tarixi va iqtisodiyot nazariyasi kafedralari birlashtirilib, dotsent S.H.Soatova mudir etib tayinlandi. 1999 -yildan boshlab kafedraga falsafa fanlari doktori M.M.Yo'ldoshev rahbarlik qildi. 2000- yildan kafedra «Falsafa, O'zbekiston tarixi, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» kafedrasi nomi bilan qaytadan tashkil qilindi va unga M.Yo'ldoshev mudir etib tayinlandi.

1968-yil tashkil etilgan falsafa kafedrasi mudirligiga esa falsafa fanlari nomzodi, dotsent Q.O.Ofarinov tayinlandi. Institut rahbariyati yangi tashkil etilgan kafedraga o'sha davrning yetuk mutaxassislari, Leningrad Davlat universitetining bitiruvchisi V.A.Tokareva, Qozon universiteti bitiruvchisi R.D.Rafiqova, O'rta Osiyo Davlat universiteti bitiruvchilari U.Ahmadjonov, A.Begmatovlarni ishga taklif etdi.

2002-2016-yillar davomida kafedrani tarix fanlari nomzodi P.X.Asxanov boshqarib keldi.

2016 – yildan buyon kafedra mudiri lavozimini vazifasini vaqtincha O.J.O'raqova bajarib kelmoqda.

Kafedra jamoasi tomonidan olib borilgan o'quv-uslubiy, ilmiy-tarbiyaviy ishlarda 1978-1988- yillar alohida o'rin tutadi. Bu davrda jamoa safiga Moskva va Leningrad universitetlarida taxsil olgan A.M.Karimova (1981-1986 va 1994-2000 yillarda Falsafa kafedrasi mudiri), Q.Ch.Qorabekov, Q.Odilov, P.Asxanov, M.Umarova, N.Rahimboboeva kabi bir qator iqtidorli mutaxassislarning kelib qo'shilishi kafedra ilmiy salohiyatini yuksaltirishda muhim o'rin egalladi. Yuqorida nomlari zikr etilganlarning barchasi pirovardida fan nomzodlari va fan doktorlari darajasiga ega bo'ldilar.

Hozirgi kunda kafedrada quyidagi professor-o'qituvchilar faoliyat yuritib kelmoqdalar:

O'roqova Oysuluv Jamoldinovna	Kafedra mudiri v.v.b
Umarova Muyassar Avazovna	f.f.n,dotsent
Asxanov Pattaxon Xabibullayevich	t.f.n,katta o'qituvchi
Xadjamuratova Matluba Xoshimovna	t.f.n,katta o'qituvchi
Botirova Barno Nabiyevna	t.f.n,katta o'qituvchi
Nurmatova Nodira Nabiyevna	kattao'qituvchi
Sattarov Akram Madaminovich	kattao'qituvchi
Badalova Manzura Oybekovna	o'qituvchi
Axmedova Shaxnoza Tursunboyevna	o'qituvchi
Maxmudov Maxmudbek Avazovich	o'qituvchi
Azimov Ashurali Mexmonboyevich	o'qituvchi
Qurbonova Muhabbat Avazovna	o'qituvchi
Abduhalimov Abduraxmon Abdumo'minovich	o'qituvchi

KAFEDRA JAMOASI



KAFEDRADA O‘QITILADIGAN FANLAR

a) bakalavriat

1. O‘zbekiston tarixi.
2. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillari.
3. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti.
4. Falsafa, etika-estetika, mantiq.
5. Ma’naviyat asoslari, dinshunoslik.
6. Sotsiologiya.
7. Iqtisodiyot nazariyasi.



b) magistratura

1. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi

KAFEDRADA OLIB BORILAYOTG N ILMIY-USLUBIY ISHLAR

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna - Falsafa doktori (phd) ilmiy darajasini olish. Dissertatsiya mavzusi “Cho‘lpon badiiy ijodining estetik – kontseptual asoslari”.

KAFEDRA XODIMLARI, ILMIY IZLANUVCHILAR VA TALABALAR TOMONIDAN CHOP ETTIRILGAN MAQOLALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.



O. O‘roqova “Cho‘lpon ijodining badiiy-estetik mohiyati”. 2016 yil, Toshkent, 160 bet. Monografiya

2017 - yilda kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan jami 25 ta ilmiy maqola va 70 ta tezis chop etildi.

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR

